

**FARG‘ONA JAMOAT SALOMATLIGI TIBBIYOT INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI
PhD 04/30.09.2020.Tib.122.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

ANDIJON DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTI

NARMATOVA DILOROMXON MAKTUBJANOVNA

**UMURTQA POG‘ONASI DEGENERATIV KASALLIKLARINING ERTA
DARAJASINING MORFOLOGIK BELGILARI**

14.00.15 – Patologik anatomiya

**TIBBIYOT FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

FARG‘ONA – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)

Narmatova Diloromhon Maktubjanovna

Umurtqa pog‘onasi degenerativ kasalliklari
erta darajasining morfologik belgilari 3

Нарматова Дилоромхон Мактубжановна

Ранние морфологические признаки
дегенеративных заболеваний позвоночника 21

Narmatova Diloromhon Maktubjanovna

Morphological signs of early degree of
degenerative diseases of the spine..... 49

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ
List of published works 55

alsafa doktori (PhD dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.4.PhD/Tib3175 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Andijon davlat tibbiyot institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz(rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.fjsti.uz) va "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Maxkamov Nosirjon Jo'rayevich
tibbiyot fanlari doktori, dotsent

Rasmiy opponentlar:

Rasulov Xamidullo Abdullayevich
tibbiyot fanlari doktori, professor

Reyimnazarova Gulsara Jamalovna
tibbiyot fanlari nomzodi, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Buxoro Davlat tibbiyot Instituti

Dissertatsiya himoyasi Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti huzuridagi PhD.04/30.09.2020.Tib.122.01 raqamli ilmiy kengashning 2025 – yil "19" 04 soat 10⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 150100, Farg'ona sh., Turon ko'chasi, 2-uy. Tel./faks: (+99873) 245-59-07, faks: (99873) 245-59-07 e-mail: info@fjsti.uz).

Dissertatsiya bilan Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (275 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 150100, Farg'ona sh., Turon ko'chasi, 2-uy. Tel/faks: (+99895) 400-01-14, faks: (99873) 245-59-07 e-mail: info@fjsti.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «10» 04 kuni tarqatildi.
(2025-yil «10» 04 dagi 15 - raqamli reestr bayonnomasi).



A.A. Sidikov
Ilmiy daraja beruvchi, ilmiy kengash raisi,
tibbiyot fanlari doktori, professor

S.A. Shakirov
Ilmiy darajalar beruvchi, ilmiy kengash
kotibi, tibbiyot fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD)

Sh.I. Ro'ziyev
Ilmiy daraja beruvchi, ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, tibbiyot fanlari
doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda umurtqa pog‘onasi degenerativ kasalliklarining erta davri yer yuzi aholisining 27%ida yashash joyidan qattiq nazar hayot tarzi va ovqatlanishiga bog‘liq holda bir xil darajada uchraydi (Schulz, K; Lehnert, H 2020). O‘rta Osiyo davlatlari aholisi orasida umurtqa pog‘onasi degenerativ kasalliklari 30% atrofida uchraydi, lekin rivojlangan davlatlar aholisida turmush tarzi etarli darajada bo‘lsada bel sohasidagi og‘riq deyarli barchasida aniqlanadi (Musabekov A.A.2023). Kasallikning erta davrini sababi digormonal, endokrin, ovqat hazm qilish omillari, surunkali kasalliklar, kasbiy xavflar, jismoniy harakatsizlik bilan izohlanadi. Umurtqa pog‘onasi faol ijtimoiy guruhga kiruvchi 30-50 yoshli insonlarda ko‘p uchraydi. Umurtqa og‘rig‘i bilan shifokorlarga murojaati orasida ikkinchi o‘rin, shifoxonaga yotqizilgan bemorlarning uchdan birini tashkil qiladi. (Hah, J M.; Mackey, S C. 2019).

Jahonda ayniqsa, mutaxassislarning keltirgan ma‘lumotlariga ko‘ra «...insonning surunkali kasalliklari orasida umurtqa pog‘onasining protruziya, spondilit va dissitining erta darajadagi zararlanishlari kun sayin ortishi kuzatilmoqda...¹. Bu kasallik insonlar yashash davomiyligining uchinchi va beshinchi o‘n yilligida ayniqsa, ayollarda erkaklarga nisbatan ko‘proq uchrashi bilan tavsiflanadi. Bugungi kunda umurtqa protruziyasi, dissiti va spondilitini zamonaviy erta tashhishlash va davolash tartibining yaratilishiga qaramasdan, kasallikning uchrash darajasi keskin ortib borishi kuzatilmoqda. Yuqoridagi tahlillar asosida kasallikni erta davridayoq tashhishlash asnosida natijali asoratlarsiz davolash tizimini amalga oshirish, gistotopografiyasiga bog‘liq holda rivojlanadigan o‘ziga xos morfologik o‘zgarishlar oqibatida yuz beradigan asoratlarni tashhishlashni takomillashtirish bo‘yicha dolzarb ilmiy tadqiqotlar alohida davlat darajasidagi vazifa bo‘lib qolmoqda (Israilov R, Maxkamov N.J., 2022 yil).

Mamlakatimizning sog‘liqni saqlash tizimida ham harakat-tayanch tizimi kasalliklarining, ayniqsa, erta davridan keyingi asoratlarni oldini olish uchun erta tashhishlash va davolashning samarali usullari amalga oshirilmoqda. Oxirgi 10-15 yilda umurtqa degenerativ kasalliklarining soni o‘sib bormoqda va dalillarga asoslangan zamonaviy tibbiyot tamoyillariga molik muayyan chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda, bu yesa uning diagnostika, davo va profilaktika ishlarini davlat darajasidagi vazifaga aylanishiga olib kelmoqda. Bu borada 2017–2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishiga muvofiq «...ixtisoslashtirilgan tibbiy xizmat ko‘rsatish qulayligi hamda sifatini oshirish, tez va shoshilinch tibbiy yordam tizimini yanada isloh qilish, nogironlikning oldini olish. »² kabi vazifalari belgilangan. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda umurtqa

¹Fjeld OR, Grøvle L, Helgeland J, Småstuen MC, Solberg TK, Zwart JA, Grotle M. Complications, reoperations, readmissions, and length of hospital stay in 34 639 surgical cases of lumbar disc herniation. Bone Joint J. 2019 Apr;101-B(4):470-477.

²O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF–4947-son «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida»gi Farmoni.

pog‘onasi degenerativ kasalliklarini yerta davridagi morfologik belgilarni tashxislash va sifatli davolashni korrekstion optimallashtirish choralarini amaliyotga yangicha uslublar bilan amalga oshirish zarurdir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF–4947-son «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida», 2018 yil 7 dekabrda PF–5590–son «O‘zbekiston Respublikasi sog‘liqni saqlash tizimini tubdan takomillashtirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi farmonlari, 2017 yil 20 iyundagi PQ–3071-son «O‘zbekiston Respublikasi aholisiga 2017–2021 yillarda ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam ko‘rsatishni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlarga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining VI. «Tibbiyot va farmakologiya» ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Oxirgi 10 yillikda, umurtqa pog‘onasi kasalliklarini erta tashxislash bo‘yicha, zamonaviy tekshirish usullarini joriy yetilishi yo‘lga qo‘yilmoqda. Ammo, umurtqa pog‘onasi kasalliklarini yerta morfologik o‘zgarishlari bo‘yicha xanuzgacha ma‘lumotlar keltirilmagan. AQSh olimlari Salli Robert va boshqalar, 2016 yil tibbiyotning zamonaviy usullari orqali umurtqalararo diskda doimiy me‘yoriy qarish va kasalliklarda o‘zgarib turishini baholashgan. Baptista J.S. va b., 2019 diffuz oziqlanishning buzilishi bo‘g‘im yuzasida va umurtqalararo diskda degenerativ-distrofik jarayonni kuchaytirishini klinik jihatlarini o‘rganishgan. Fridmann A. va b., 2017yil degeneratsiyalangan suyak va disk to‘qimasini baholash uchun mikrostrukturasini tahlil qilish kerakligini takidlab o‘tgan. Yang H. va b., 2019 umurtqalararo diskning mustahkamligi va elastikligi uning tarkibidagi glyukoamino-glikanlarning mavjudligiga bog‘liq jihatlarini o‘rganishgan, lekin, Amelot A, Mazel C., 2018 disk va uning dirildoq yadrosi qon tomirlar bilan bevosita taminlanmasligini keltirib o‘tishgan. Yan S., Vang K., Chjan Y., 2018 umurtqa bo‘g‘im sohasi va diskning tarkibiy qismi hisoblangan suyak hamda dirildoq yadro atrofidagi biriktiruvchi to‘qima tolalarining o‘zgarishi, bo‘g‘im yuzalarini siljishi oqibatida, umurtqalararo teshikning yoshga doir o‘zgarishini muhim mezon sifatida baholashgan.

O‘zbekistonda olib borilgan tadqiqotlar tahlili shuni ko‘rsatdiki, umurtqalardagi barcha qattiq va yumshoq to‘qima sohalaridagi patomorfologik holatlarini hisobga olib, bajarilgan yerta tashhis va uzluksiz davo natijasi yuqoridir (Shotursunov Sh.Sh., Kochkartaev S.S., 2020).

Umurtqaning patologik o‘zgarishlarini erta davridayoq davolash hamda aniq tashhislashni tadbir qilmaslik jarrohlik amaliyotlarini optimal uslublarini tanlashda ko‘pgina mualliflar fikrlarida qarama-qarshiliklar keltirib chiqaradi (Xudayberdiev K.T., 2018), biroq, umurtqa pog‘onasi degenerativ kasalliklarining erta davri bosqichidagi patomorfologik, multifokal morfometrik tahlili zamonaviy usullar bilan o‘rganish ishlari bajarilmagan (Israilov R, Maxkamov N.J., 2020).

Yuqorida keltirilgan taxlillarga asoslanib, umurtqa pog'onasi degenerativ kasalliklarini erta tashxislashni morfologik va morfometrik asoslarini o'rganish va amaliy tibbiyot uchun dalillarga asoslangan tavsiyalarni ishlab chiqish zaruratini taqozo etadi. Bu esa o'z navbatida, tanlangan tadqiqot ishini ayni paytda muxim va dolzarblini tasdiqlaydi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Andijon davlat tibbiyot institutining ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq №005.01.1500216 «Inson va tajriba hayvonlar organizmi hayot faoliyati ko'rsatkichlarining har xil patologik omillar ta'siridagi funksional, metabolik va struktur o'zgarishlarning o'ziga xosligi va ularni korreksiyalash yo'llari hamda ekspert baholashning yangi imkoniyatlari» (2019-2023 y.) mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi. Umurtqa pog'onasi degenerativ kasalliklarini erta darajasini tashxislash va davolashni rejalashtirishda patomorfologik va morfometrik tekshirishlarni ahamiyati.

Tadqiqotning vazifalari:

umurtqa pog'onasi kasalliklarida bemorlarni klinik instrumental va funksional anatomik tekshiruvlarni taxlil qilish;

umurtqa pog'onasida rivojlangan spondiliti, protruziyasi, dissitining patomorfologik xos o'zgarishlarini o'rganish;

umurtqa pog'onasi degenerativ kasalliklarini erta darajasini tashxislashning patomorfologik jihatlari asosida qo'shimcha mezonlar va tavsiyalar ishlab chiqish.

umurtqa pog'onasi protruziyasi, churra to'qimasida rivojlangan o'zgarishlarning morfometrik ko'rsatkichlarini baholash.

Tadqiqotning ob'ekti sifatida umurtqa tana suyagi va oraliq diski degenerativ kasalliklari bo'yicha o'tkazilgan jarrohlklarda olingan 103 ta biopsiya materiali va boshqa kasalliklardan vafot etganlar murdasidan olingan 14 ta umurtqalar suyak va oraliq diski materiallari olingan.

Tadqiqotning predmeti umurtqa pog'onasi kasalliklari erta davrini tahlilida, umurtqa protruziyasi, dissiti va spondilitida bemorlarning umurtqa suyagi hamda tog'ay diski biopsiyasi va boshqa hastalik tufayli nobud bo'lganlar suyagining bo'g'im yuzasi diski bilan birga va klinik-anamnestik ma'lumotlari olindi.

Tadqiqotning usullari.

Klinik-anamnestik, laboratoriya tahlil, struktur-funksional usul, morfologik gematoksilin yeozin, gistokimyoviy tekshiruvlar, konfokal mul'tipleksli morfometrik va statistik tadqiqot usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

umurtqa pog'onasi kasalliklarining klinik-anamnestik, laborator- instrumental tekshirishda rivojlangan spondilit, protruziya va dissitda funksional anatomik joylashishi bo'yicha, hos jihatlarni solishtirma tashhislashda farqlar mavjudligi aniqlandi;

umurtqa pog'onasi kasalliklarida dastlabki patomorfologik belgilari bo'lgan protruziya, spondilit va dissitlar rivojlanishidagi degenerativ o'zgarishlarni yuzaga kelishidagi o'ziga xosligi isbotlangan;

umurtqa pog'onasi degenerativ kasalliklarining yerta davrida rivojlangan patomorfologik o'zgarishlarni tashhishlashda taklif yetilgan qo'shimcha mezonlar va tavsiyalar ishlab chiqilgan;

umurtqa pog'onasi protruziyasi, churra to'qimasida rivojlangan o'zgarishlarning morfometrik ko'rsatkichlari bo'yicha, xondrotsitlarni faollik koeffitsienti nazorat guruxida 0,14, churrada 0,48 ko'tarilgan ya'ni 4 barobarga oshganligi aniqlandi.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Umurtqa degenerativ kasllanishining erta davrida gistologik tuzilishidagi o'zgarishlarni baholash asosida umurtqa suyagi bo'g'im qismi bilan bir paytda diskni o'zidagi jarayonlarni individual tahliliy tashhishlash, samaraviy davolash natijasini bergan ;

umurtqa spondiliti, dissiti va oraliq'i disk protruziyasida degenerativ o'zgarishlar barcha morfofunktsional qismlarida birdaniga va har xil darajada boshlanishi haqidagi ma'lumotlar patologoanatomlar va travmatolog-ortopedlar nazariy va klinik amaliyotida qo'llash uchun tavsiya etilgan;

protruziya, spondilit va oddiy churrada degenerativ, distrofik va destruktiv o'zgarishlar disk to'qimasining barcha struktur elementlarini qamrab olganligi, fibroz xalqada bu o'zgarishlarga yallig'lanish jarayoni qo'shilganligi, dirildoq yadro tashqariga bo'rtib chiqqanligi haqidagi ma'lumotlar bu kasalliklarni davolashda qo'llash uchun tavsiya etilgan;

protruziya, dissit va spondilit kasalliklarning klinik-morfologik belgilarini tahlil qilishda qo'llanilgan, umurtqaning yumshoq va qattiq tarkibiy qismi to'qima tuzilmalarining multifokal-morfometrik o'zgarishlari muhumliligi ko'rsatib berilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi barcha tadbiiq etilgan usullar bilan olib borilgan tadqiqotlarning individual jihatdan asosiyligi, yetarli darajada material olinib, usullarning tibbiy zamonaviyligi, klinik, instrumental va multifokal morfometrik, gisto-kimyoviy statistik usullar kiradi. Umurtqaning degenerativ kasalliklariga xos yerta davrining patomorfologik va morfometrik jihatlarini takomillashtirish bo'yicha halqaro va mahalliy mualliflar amaliyotlar bilan taqqoslangan. Olingan hulosalar vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Olib borilgan ilmiy ishlarning spondilit ta'siridan keyingi disk churrasida degenerativ, ya'ni distrofik va destruktiv o'zgarishlar disk to'qimasining barcha struktur elementlarini qamrab olganligi, fibroz xalqada bu o'zgarishlarga yallig'lanish jarayoni qo'shilganligi, natijada tolali tuzilmalarining nekrobiozga uchrashi, yorilishi va suvsizlangan, tolalari gomogenlashib, nekrozlangan, oraliq moddasi shish va kalsinozga uchragan dirildoq yadro tashqariga bo'rtib chiqishi aniqlanganligi esa individual tashhishlash yaratilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati morfometrik tekshiruvlar shuni ko'rsatdiki, fibroz halqada tolali tuzilmalar ko'p joyni egallagan va zich joylashganligi, hujayralari esa kam joyni egallagan va zich joylashganligi kuzatildi. Protruziyada fibroz xalqa tarkibida kollagen tolalar egallagan maydon, nazorat

guruhiga nisbatan 15% kamayganligi, oraliq modda esa 4 barobar kengayganligi kuzatildi va dirildoq yadroda ham huddi shunga o'xshash patomorfologik o'zgarishlarni tashhislash tartibi yaratilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Degenerativ kasalliklarining erta davrida umurtqaning kasallanishini vaqtida ijobiy tashhislash uchun olingan ilmiy natijalarga asoslanib:

Tasdiqlangan "Umurtqa pog'onasi degenerativ kasalliklari yerta davrida patomorfologik tashxislash usuli" mavzusida ishlab chiqilgan uslubiy tavsiyanoma Sog'liqni saqlash vazirligi huzuridagi Ilmiy texnik kengashining 2025-yil 15 yanvardagi 06/81-son xulosasiga ko'ra (ilmiy yangilikni boshqa sog'liqni saqlash muassasalariga joriy etish bo'yicha Andijon davlat tibbiyot institutining 2024-yil 27 avgustdagi 6i-62/u-sonli xati Sog'liqni saqlash vazirligiga taqdim etilgan).

Birinchi ilmiy umurtqa pog'onasi kasalliklarining klinik-anamnestik, laborator- instrumental tekshirishda rivojlangan spondilit, protruziya va dissitda funksional anatomik joylashishi bo'yicha, hos jihatlarini solishtirma tashhislashda farqlar mavjudligi aniqlanganligi Namangan viloyati patologik anatomiya byurosi bo'yicha (18.10.2024 y.; №62), Namangan viloyati ko'p tarmoqli tibbiyot markazi bo'yicha (15.10.2024 y.; №63) hamda Andijon viloyati patologik anatomiya byurosi bo'yicha (21.11.2024 y.; №24), Andijon viloyati travmatologiya va ortopediya shifoxonasi (19.11.2024y., 157-son) buyrug'i bilan amaliyotiga joriy yetilgan. Ilmiy yangilikning ijtimoiy samaradorligi quyidagilardan iborat: tavsiya yetilgan patomorfologik tashhis usuli davolash amaliyotiga joriy yetilishi natijasida, aholi orasida 82% gacha umurtqa pog'onasi degenerativ kasalliklarining yerta davrida tashxislash samaradorligi oshirilishiga imkon bergan. Ilmiy yangilikning iqtisodiy samaradorligi quyidagilardan iborat: Iqtisodiy samaradorlik UDCh jarrohlik amaliyotini o'tkazish tannarhi keltirib o'tilgan barcha harajatlarning foydalisi jarrohlik amaliyoti o'tkazilmasdan avvalgi va keyingi klinik - laborator test o'tkazishdan (MRT, Rentgen, UTD va qon biohimik tahlil) iborat.

Mazkur holatda qiyosiy tahlil uchun quyidagilardan foydalanildi:

tashhislash uchun holatini umumiy klinik tahlilini tannarhi:

$Sddt = (MRT + REN) * Ka + CN + Sd = (220000 + 40000) * 5 + 75000 = 340000$
so'm

Keyin 90 bemor uchun 27 200 000 so'm, keyin:

$Snml = Ncch * 0,78 * Dk * Cc / kun,$

Qaerda:

Dsc – bitta bemorga tezkor tashhis qo'yish va davolanish tufayli koyka kunlarini qisqartirish (taxminan 22,7%).

Ck / kun – bitta koyka kuniga harajatlar (hisoblash vaqtida - 170 600 so'm).

$Szt = 80 * 10 * 0,78 * 170 600 = 106 454 400$ so'm.

Keyingi xarajatlar farqi: $Srr = 162 360 000 - 106 454 400 = 35719200$ so'm

Xulosa: tavsiya etilgan patomorfologik tashxislash usulidan foydalanilganda, davolash tartibi bo'yicha bitta bemorga iqtisod qilingan summa byudjet mablag'larini 515 000 so'mni iqtisod qilishga erishilgan;

Ikkinchi ilmiy yangilik: Umurtqa pog‘onasi kasalliklarida dastlabki patomorfologik belgilari bo‘lgan protruziya, spondilit va dissitlar rivojlanishidagi degenerativ o‘zgarishlarni yuzaga kelishidagi o‘ziga xosligi isbotlanganligi Namangan viloyati patologik anatomiya byurosi bo‘yicha (18.10.2024 y.; №62), Namangan viloyati ko‘p tarmoqli tibbiyot markazi bo‘yicha (15.10.2024 y.; №63) hamda Andijon viloyati patologik anatomiya byurosi bo‘yicha (21.11.2024 y.; №24), Andijon viloyati travmatologiya va ortopediya shifoxonasi (19.11.2024y., 157-son) buyrug‘i bilan amaliyotga joriy yetilgan. Ilmiy yangilikning ijtimoiy samaradorligi quyidagilardan iborat: spondilit, dissit va protruziyaning klinik, struktur-funksional va patomorfologik tahlilini holatini solishtirma baholab, turli usullarning ijobiysini tanlab olinishi bemorlar mehnat faoliyatiga tiklanishini 100% gacha yetishiga erishiladi. Ilmiy yangilikning iqtisodiy samaradorligi quyidagilardan iborat: $Ye = Spr - Spz = 35719200 - 21\,588\,000 = 14\,131\,200$ so‘m, ya‘ni bu DS yordamida DCh ning operatsiyadan keyingi qaytalanishini va yerta tashhis qo‘ygan bitta bemorga iqtisodiy ta‘sirining ifodasidir. Keyinchalik, FE modellashtirishni loyihalash uchun biz “qarorlar daraxti” "qarorlar daraxti" ni qurish bilan "Case-study" tizim taxlil usulining elementidan foydalandik (Fillipova I., 2010).

DCh da qo‘llanilgan DS uchun iqtisodiy samaradorlik koeffitsientini baholash Iqtisodiy samaradorlik koeffitsienti quyidagi formula yordamida hisoblab chiqilgan: $CEA = (DC + JC) / YeF$

CEA harajatlari samaradorligi koeffitsienti (ya‘ni 1-davolangan bemor misolida samaradorlik birligi uchun zarur bo‘lgan harajatlar)

DC – bevosita harajatlar

JC – bilvosita harajatlar

YeF – davolash samaradorligi (davolangan bemorlarning nisbiy soni).

Ushbu ishda faqat bevosita harajatlar hisobga olgan bo‘lib, birinchi va ikkinchi toifalar uchun iqtisodiy samaradorlik smetasini aniqladik va quyidagi formuladan foydalandik:

$$CEA = DC / YeF$$

$$\text{Keyin: Birinchi toifa uchun } CEA1 = DC1 / YeF1 = 106 / 72 = 1.47$$

$$\text{Ikkinchi toifa uchun } CEA2 = DC2 / YeF2 = 106 / 60 = 1.77$$

Hulosa qilib ushbu qo‘llanma dalillarga va tibbiyot tamoyillariga asoslangan holda bajarilishi albatta ijtimoiy va iqtisodiy samaradorlikni oshiradi hamda bu usullarda tashis va davo samarasini zamonaviy standartlarda jahon darajasiga ko‘tarishga yordam beradi.

Uchinchi ilmiy yangilik: Umurtqa pog‘onasi degenerativ kasalliklarining yerta davrida rivojlangan patomorfologik o‘zgarishlarni tashhishlashda taklif etilgan qo‘shimcha mezonlar va tavsiyalar ishlab chiqilganligi Namangan viloyati patologik anatomiya byurosi bo‘yicha (18.10.2024 y.; №62), Namangan viloyati ko‘p tarmoqli tibbiyot markazi bo‘yicha (15.10.2024 y.; №63) hamda Andijon viloyati patologik anatomiya byurosi bo‘yicha (21.11.2024 y.; №24), Andijon viloyati travmatologiya va ortopediya shifoxonasi (19.11.2024y., 157-son) buyrug‘i bilan amaliyotga joriy etilgan. Ilmiy yangilikning ijtimoiy samaradorligi quyidagicha: taklif yetilgan klinik

tahlillarni mujassamlashtirib, nazariy patomorfologik hulosalarda asosida tashhislash tartibi umurtqa degenerativ kasalliklari erta davrida nogironlik sindromini uzul kesil cheklagan. Ilmiy yangilikning iqtisodiy samaradorligi quyidagicha bo'lib: tavsiya yetilgan umurtqa spondiliti, protruziyasini erta aniqlash uchun klinik, morfologik asoslangan tashxislash talabida davolashini tanlash natijasida iqtisodiy samaradorlikni yuqoriligi 70% gacha mablag'lar tejaliishi bilan izohlanadi. Xulosa: bunday umurtqaning kasalliklarini erta tahlilida klinik, morfologik o'zgarishlarini to'liq o'rganilishi hisobiga, ortoped-travmatologlar uchun kasallik klinik, morfologik sabablarini 100% aniqlash, tahlil qilish va davolash taktikasini to'g'ri tanlanishiga imkon beradi;

To'rtinchi ilmiy yangilik: Umurtqa pog'onasi protruziyasi, churra to'qimasida rivojlangan o'zgarishlarning morfometrik ko'rsatkichlari bo'yicha, xondrotsitlarni faollik koeffitsienti nazorat guruhida 0,14, churrada 0,48 ko'tarilgan ya'ni 4 barobarga oshganligi aniqlanganligini Namangan viloyati patologik anatomiya byurosi bo'yicha (18.10.2024 y.; №62), Namangan viloyati ko'p tarmoqli tibbiyot markazi bo'yicha (15.10.2024 y.; №63) hamda Andijon viloyati patologik anatomiya byurosi bo'yicha (21.11.2024 y.; №24), Andijon viloyati travmatologiya va ortopediya shifoxonasi (19.11.2024y., 157-son) buyrug'i bilan amaliyotga joriy etilgan. Ilmiy yangilikning ijtimoiy samaradorligi quyidagilardan iborat: spondilit, protruziya va dissitni klinik-funksional va morfologik birlashgan yondashuv asosida bemorlarni solishtirma tashhislash sifatini 90% ga yaxshilanishiga imkon bergan. Ilmiy yangilikning iqtisodiy samaradorligi quyidagicha tahlil qilindi: DS(Sddt) – bevosita harajatlarsiz va uni hisobga olish bilan jarrohlik amaliyotidan keyingi tahlillash va davolash muolajalarini qiyosiy tannarhi DCh- disk churrasi bir bemor uchun davolashga sarflanadigan qiymat aniqlandi. Shunday qilib:

DChga shubha qilingan bemor holatida birlamchi umumiy klinik tahlilga (bir marta o'tkaziladi) bo'lgan harajatlarni aniqlash:

$$Stmd=Ap+Di+(Ci+MN+Zzp)= 30\ 000+50\ 000+290\ 000= 370\ 000\ \text{so'm}$$

Bunda:

Ap – UASh tomonidan bemorni ko'rikdan o'tkazishni o'rtacha statistik qiymati.;

Di - travmatolog – ortoped maslahatining o'rtacha statistik qiymati;

Ci - Bir bemorga tahlillar uchun (MRT, Rentgen, YeKG, qon va peshobning tahlili,) sarflanadigan materiallarni turi bo'yicha qiymati;

i - sarflanadigan materiallarning turi, bu yerda i= 1... N;

MN – yuk xati harajatlari.

Zzp - bir bemor uchun klinik - laboratoriya xodimlariga to'lanadigan harajatlar. Jarrohlik amaliyotidan oldingi umumiy klinik tahlilni o'tkazish qiymati:Sk1 =1 125000 (klinika tarifi bo'yicha).

Iqtisodiy samaradorlik UDCh jarrohlik amaliyotini o'tkazish tannarhi keltirib o'tilgan barcha harajatlarning foydalisi jarrohlik amaliyoti o'tkazilmasdan avvalgi va keyingi klinik - laborator test o'tkazishdan (MRT, Rentgen, UTD va qon biohimik tahlil) iborat.

Xulosa: klinik, morfometrik nazariy-amaliy tahlillarni uyg'unlashtirib, umurtqa degenerativ kasallikning yerta davridayoq, aholining mehnatga layoqatli qatlami kasallanishida zamoaviy usullarni qo'llab tashxislash 55% atrofida mablag'ni tejalishiga olib kelgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatyasi. Dissertatsiya ishida 4 ta ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o'tkazilgan bo'lib, shundan 2 tasi xalqaro va 2 ta respublika miqyosida tashkil etadi.

Tadqiqot natijalarining ye'lon qilinganligi. Ilmiy tadqiqot bo'yicha jami 11 ta ilmiy ish chop etilgan bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop yetish tavsiya yetilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola, jumladan, 3 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, beshta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yhatidan iborat. Dissertatsiya hajmi 107 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida o'tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, ob'ekt va predmetlari tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalar taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan, ularni ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, ishlarning aprobatyasi natijalari, nashr qilingan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Umurtqa pog'onasi degenerativ-distrofik kasallik-lari patomorfologik o'zgarishlarining zamonaviy talqini**» deb nomlangan birinchi bobida umurtqa pog'onasining suyaklanishi bola tug'ilgandan keyingi barcha yoshdagilar ma'lumotlari keltirilgan bo'lib, shu jumladan dunyoda harakat tayanch tizimi kasalliklari sanoati rivojlangan davlatlarda 67,8% ni tashkil yetishi, dunyoda 10ta yeng xavfli kasalliklar guruhiga kiritilganligi muammoni dolzarbligini tasdiqlaydi. Umurtqa pog'onasi distrofik degenerativ kasalliklarida rivojlanadigan morfologik o'zgarishlar va ular asosida tavsiya yetilgan tashhislash va davolashni takomillashtirish bo'yicha horij, MDH adabiyotlar talqinida juda ko'plab nazariy va amaliy yondashuvlar haqida to'liq ilmiy ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Umurtqa pog'onasi protruziyasi, spondiliti va dissitining patomorfologik ko'rsatkichlarini baholash material va usullari**» deb nomlangan ikkinchi bobida material sifatida jami ilmiy izlanishning aniq maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda material sifatida umurtqa tana suyagi va oraliq diski degenerativ kasalliklari bo'yicha o'tkazilgan jarrohlklarda olingan 103 ta biopsiya material va boshqa kasalliklardan vafot yetganlar murdasidan olingan 14 ta umurtqalar suyak va oraliq diski materiallari olingan.

Nazorat guruhi sifatida 14 ta boshqa turli kasalliklardan vafot yetganlar murdasidan umurtqa pog'ona diski ajratib olindi. Nazorat guruhida asosan yurak-

tomir kasalliklaridan vafot yetganlar murdasidan bel soha umurtqalar oraliq'i diski ajratib olingan. Nazorat guruhidagi bemorlarning yosh va son jihatidan tasnifi bo'yicha 30-39 yoshlilar – 1 tani, 40-49 yoshlilar – 6 tani, 50-59 yoshlilar – 5 tani, 60-69 yoshlilar 2 tani tashkil qildi.

Kuzatuvimiz natijasida, umurtqa pog'onasi suyak va disk to'qimalarida diffuz oziqlanishning buzilishi sabab deb ko'rsatilgan radikulyar sindromining yetiologik omili o'z tasdig'ini topmadi, aksincha, kompressiyalovchi omil asosiy sababi reflektor og'riq sindromi yekanligi ma'lum bo'ldi. Gistokimyoviy tekshirishda, asosan, faol bo'yalgan sohalaridagi hujayralar, tolali tuzilmalar, oraliq moddalarning yegallagan maydonini hisoblab, uchta sohada rivojlangan churra tarkibiy qismining xos rangda bo'lishi morfometriya jarayonida o'lchangan kattaliklarni aniq bir chegaradagi traektoriyasini raqamlar orqali ifodalash uchun asos qilib olindi, bir-biridan farqi aniqlandi, morfofunksional jihatdan baholandi. Morfometrik ko'rsatkichlarni baholash, mazkur patologiyada to'qimadagi hujayralar joylashuvining o'zgarishi, kasallikning og'irlik darajasini aniqlashga zamin yaratadi.

Dissertatsiyaning «**Umurtqa pog'onasi degenerativ–distrofik kasalliklarining yerta bosqichida klinik-anamnestik tahliliga kreativ yondashuv**» deb nomlangan uchinchi bobida patomorfologik o'zgarishlar bayonida har bir sohasi degenerativ-distrofik kasalliklarining alohida qismiga xos bo'lgan va bir-biridan farq qiladigan o'zgarishlarini tahlil qilib, axborotlashtirish va kompyuter texnologiyalari zamonida ko'p kasb yegalari mehnat sharoiti va faoliyatida harakatlanish darajasining pasayishi natijasida hamda, insonlar yashash tarzida mehnat faoliyatidagi kam harakatlik va og'ir yuklanishlar sabab bo'lmoqda. Bunda kasallanish umurtqa pog'onasining degenerativ kasalliklarining dastlabkisi, struktur-funksional turida yelastiklik holatning buzilish suyak hamda tog'ayli diskda spondilit, protruziya va churrasining rivojlanishiga olib keladi.

Tadqiqot natijasida dastlab bemorlarning klinik-anamnestik ma'lumotlari tahlili hamda bemorlarning travmatologiya ortopediya va neyrojarrohlik bo'limlarida davolangan kasallik tarixi ma'lumotlari o'rganib chiqilgan.

Kasallikning tahliliy tavsiflashda umurtqa degenerativ-distrofik rivojlanishi oqibatida, bo'g'im orasida nostabillik va kompressiya vujudga keladi. Klinik jihatdan segmentlararo nerv tomirining yezilishi va siqilishi kuchli og'riq sindromini yuzaga keltiradi.

Umurtqa pog'onasidagi degenerativ – distrofik kasallikni klinik rivojlanishi statik, nevrologik, vegetativ va visseral o'zgarishlar rivojlangan segmentlari bilan bo'limlariga qarab xarakterlanadi. Ushbu ishning materiali sifatida jami 103 ta umurtqa pog'onasi protruziya, churra bilan xastalangan bemorlar, shulardan 14 tasi turli kasalliklardan nobud bo'lgan murdalar autopsiya materiallari olindi.


Bemorlarning klinik-anamnestik ma'lumotlari tahlili va bemorlarning neyroxirurgiya va ortopediya bo'limlarida davolangandagi kasallik tarixi ma'lumotlaridan olindi.

Bemorlarni klinik tekshiruvini anamnestik tavsiflash dizayni shundan iborat;


Asosiy guruh bemorlar yoshi va jinsi bo'yicha tahlil qilinganda jami yerkaklar 44 tani tashkil qilgan bo'lsa, ulardan 20-29 yoshlilarda kam uchragani, 30-39 dan 50-59 yoshlilarda ko'p uchragani kuzatildi. Ayol bemorlar soni yerkaklarga nisbatan ko'proq, ya'ni 15 tani tashkil qilgan bo'lsa, ularda ham yerkaklarga o'xshash yoshlarda kasallik ko'proq uchraganligi aniqlandi. (1-rasmga qarang).

Kasallik tarixi ma'lumotlari asosida umurtqa pog'onasi barcha sohalari protruziya, dissit va churra kasalligining davomiyligi tahlil qilinganda shu holat aniqlandiki, yerkaklarda o'rtacha davom yetishi 7 oyni tashkil qildi. 39 yoshgacha bo'lgan nisbatan yosh bemorlarda kasallikning davomiyligi 3-4 oy oralig'ini tashkil qildi. Undan katta yoshdagi bemorlarda yesa xastalikning davomiyligi 40-49 yoshlilarda 7 oy bo'lishi tasdiqlandi (2-rasmga qarang).

Ayollar ma'lumotlari tahlil qilinganda kasallikning davomiyligining yoshga qarab har xilligi biroz boshqacha bo'lib chiqdi. Ya'ni 20 yoshdan 49 yoshgacha bo'lgan bemorlarda davomiylik 3-6 oyni tashkil qilgan bo'lsa, undan katta yoshdagilarda 8-13 oyni tashkil qildi, bu ko'rsatgichlar yerkaklarga nisbatan biroz kam bo'lib chiqdi (3-rasmga qarang)




1-rasm. Erkak va ayol bemorlar yoshi bo'yicha degenerativ-distrofik kasalliklarning uchrash



2-rasm. Erkak bemorlar yoshi bo'yicha kasallik davomiyligi ko'rsatgichi, (oylarda).

Ma'lumki, umurtqa pog'onasi bo'yin, ko'krak, bel degenerativ-distrofik Churra yesa bundan farqli o'laroq, o'rta yoshlilar va qariyalarda ko'p uchrashi aniqlandi. Eng ko'p dissit insonlarning yeng ish faoliyati kuchaygan davrda, ya'ni 30-39 yoshlilarda 7, 40-49 yoshlilarda 7 ta, 50-59 yoshlilarda 6ta holatda aniqlandi. Dissitning rivojlanishi ham o'rta yoshlilarda ko'p uchradi.

Erkak bemorlar anamnezida mavjud boshqa kasalliklar bilan kasallanishi tahlil qilindi. Bunda ma'lum bo'ldiki, umurtqa pog'onasi ostexondroz kasalligiga havf soladigan semizlik kasalligi birinchi o'rinni yegalladi, ya'ni 15,9% ni tashkil qildi. Keyingi o'rinlarni buyrak kasalliklari, YuIK va gipertoniya kasalligi tashkil qildi. Bu ma'lumotlar ko'rsatishicha yosh bemorlarda, ya'ni 20 yoshdan 39 yoshgacha bo'lgan kasallarda tana vaznini keskin oshishiga sababchi bo'lgan umumiy semizlik, ayrimlarida buyrak kasalligi mavjudligi aniqlandi. O'rta yoshli bemorlarda semizlik, buyrak, jigar va o'pka kasalliklari ustunlik qilganligi ko'rinadi. Yoshi o'tganda yesa tabiiy holda YuIK, gipertoniya kasalligi ko'p uchraganligi kuzatiladi




3-rasm. Umurtqa degenerativ distrofik kasalliklarining ayol bemorlar yoshi bo'yicha uchrash darajasi ko'rsatgichlari, sonlarda.


Dissertatsiyaning «Umurtqa pog'onasi suyak va tog'ayli diskining turli degenerativ jarayonlarida patomorfologik o'zgarishlari tahlili va nazorati» deb nomlangan to'rtinchi bobida bemorlarning klinik-anamnestik tekshiruvini tavsiflash dizayni yaratilgan bo'lib, bu umurtqa pog'onasi degenerativ - distrofik kasalliklarining bo'yin, ko'krak va bel sohalariga hos barcha segmentlari yetiopatogenetik va klinik ko'rinishini bir biridan farqlab tashhishlashga imkon yaratadi.

Umurtqa bo'yin qismi klinik anamnestik tahlilida disk, umurtqa suyagi, bir-birini bog'lovchi bo'g'imlar shikastlanishi, deformatsiya, parchalanish va zichligi buzilishi bilan ta'riflanadi. Bemorlarning o'rta va katta yoshli kontingentida suyak-

bo'g'im to'qima tuzilmalarining yeskirib borishi natijasida diskda churra, suyakda dissit va aseptik nekrozdan avvalgi holatlar ko'payib bormoqda, bo'yinda og'riqlar yelka va qo'lga irradiatsiyalanadi, ko'z oldida nuqtalar uchishi, quloqlarida doimiy shovqin sezishi, yelka muskullarini spazmi del'tasimon muskulni qisqarishidan kontraktura, yurak sohasidagi noxush sezgi bilan og'riq (bilmasdan kardiologga murojaat qilishadi), uyqu buzilishi va barmoqlarning uyushishiga olib keladi. Bemorlarni klinik-anamnestik tekshirish natijalari statistik tahlilida keltirilgan ma'lumotlarning umurtqa pog'onasi bo'yin, ko'krak va bel sohalari degenerativ kasalliklarida klinik anamnestik xulosalarni solishtirma tahlili konservativ va tashrih yo'li orqali davolashni ilmiy asoslash imkonini beradi (1-jadvalga qarang)



4-rasm. Umurtqalar oralig'i disk protruziyasi. Fibroz halqada fragmentatsiyaga uchragan kollagen tolalar aniqlanadi. Bo'yoq: G-Ye. O'lchami 10x10



5-rasm. Umurtqalar oralig'i disk protruziyasi. Fibroz halqa tarkibidagi kollagen tolali tutamlar titilgan va oraliqda shishlar aniqlanadi. Bo'yoq: G.E. O'lchami 10x40.


